

## PROFESSOR A. MAMAJONOV-USLUBSHUNOS OLIM

**D.M. Yuldasheva.**

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**M.A. Ermatova.**

Mustaqil tadqiqotchi:

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada professor A.Mamajonovning ilmiy merosini o‘rganishning tarbiyaviy ahamiyati, ilmiy maktablar yaratgan professor-o‘qituvchilar yo‘li namuna, andoza ekanligi haqida yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ilmiy maktablar, tilshunoslik, izlanishlar, stilistika asoschisi, ajdodlar merosi, tarbiya, ibrat.

Mo‘jiza har kuni yaralavermaydi, uning olamga kelishi ma’lum vaqt-soatlarda paydo bo‘ladi. Bu kun, bu onlar o‘ta sirli, hayratlanarli kechadi. Mo‘bolag‘asiz aytish joizki, shoh lahzalarda inson o‘zi to‘la anglamagan holda olamshumul oliyjanobliklarga qo‘l uradi va ilohiy qudrat qanotida yuksaklarga parvoz qilgan ruh aql bovar qilmas muvaffaqiyatlarga erishadi, dahoga aylanadi. O‘zbek xalqi ham huddi ana shunday aql bovar qilmas muvaffaqiyatlarga erishgan, dahoga aylangan xalqdir.

Har sohada yuksak natijalar bo‘lgani kabi o‘zbek tilshunosligi ham ulkan-ulkan yutuqlarga erishib, andoza bo‘ladigan, namuna qilib ko‘rsatsa arziydigan o‘ziga xos ilmiy maktablar yarata olgan.

Jahon tilshunoslida muayyan fan sohalarida yaratilgan ilmiy maktablarning o‘ziga xos xususiyatlari, nazariy tafakkur rivojidagi o‘rni va roli masalalari dolzarb muammolardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Chunki ilmiy maktab yaratgan olimlar fanning ma’lum bir yo‘nalishini taraqqiyotning yangi bosqichiga yuksaltirishga asos bo‘ladigan ilmiy-nazariy yangiliklar yaratdi. Ilm-fanda o‘zi yaratgan tadqiqotchilik yo‘lini davom ettiradigan, yangi natijalar bilan boyitadigan izdoshlarni yetishtiradi. Ana shunday olimlar ilmiy-ijodiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ular ishlab chiqqan tamoyillarni va mezonlarni tadqiq qilish yangi ilmiy-nazariy xulosalarga olib kelishi va fanning keyingi rivojiga xizmat qilishi nuqtai nazaridan dolzarbdir.

Dunyo tilshunoslida jahon lingvistika tafakkuri rivojiga ulkan hissa qo‘sghan ilmiy maktablar, mazkur maktablarga asos solgan olimlarning tadqiqot usullari, ular erishgan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati singari muhim masalalar o‘rganilib

kelinmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni bugungi kun talablari darajasida izchil davom ettirish zamon talabidir.

O‘zbek tilshunosligida yaratilgan ilmiy maktablarning milliy lingvistik tafakkur takomiliga ta’siri yuzasidan ayrim ilmiy izlanishlar olib borilgan. Biroq alohida olimlar faoliyatini o‘rganish tilshunoslik kun tartibida to‘liq hal etilmagan. Jumladan, tilshunoslikda maktab yaratgan, nafaqat respublikamizda, balki xalqaro miqyosda e’tirof etilgan olim, professor Alijon Mamajonov ilmiy maktabini maxsus o‘rganish masalasi ustuvor masalalardandir. Chunki uning o‘zbek tilshunosligida yaxlit mavzu sifatida kam o‘rganilgan soha-stilistikaga oid qator nazariy qarashlari, o‘zbek tilidagi qo‘shma gaplar stilistikasi, matn tilshunosligining paydo bo‘lishi, an’anaviy va zamonaviy tilshunoslikda matn tadqiqini tahlil etib, bu borada chiqargan ilmiy-amaliy xulosalari katta ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida keyingi vaqtarda qo‘shma gap stilistikasi, matnning paydo bo‘lishi va amalda ishlatilishini o‘rganish va talqin qilish markaziy masalalardan biriga aylandi. Shu nuqtai nazardan, tilning jamiyatdagi o‘rnini oshirishga bor kuchg‘ayratini bag‘ishlab kelayotgan, zabardast olimlarimizning mehnatini ulug‘lash va ularning ilmiy maktablaridan unumli foydalanish ma’lum bir ma’noda burchimiz hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida stilistika asoschisi deb e’tirof etilgan Alijon Mamajonov lingvist sifatida olib borgan o‘rinli ilmiy izlanishlari, u yaratgan ulkan ilmiy meros yosh izlanuvchilarga namuna, andoza vazifasini o‘tashi muqarrar.

Yurtboshimiz yoshlarga qarata:

– Buyuk ajdodimiz Muhammad Xorazmiyning bir hikmati bor: “So‘z – gul, ish-meva”. O‘ylaymanki, bugun belgilab oladigan rejalaringiz qanchalik pishiq-puxta bo‘lsa, ishingiz ham shunchalik yaxshi samara beradi, – dedi Shavkat Mirziyoev. – Sizlar ko‘p kitob o‘qigan, bilimli avlod sifatida yurtimiz o‘tmishda jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini yaxshi bilasiz. Siz Xorazmiylar, Farg‘oniylar, Beruniy va Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy va Boburlar, Buxoriylar, Termiziylar avlodisiz. Ana shunday buyuk vatandoshlarimiz yaratgan bebafo bilim va kashfiyotlar bugun ham butun insoniyatga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz o‘z so‘zida davom etar ekan, bu o‘rinda qomusiy olim Muhammad Xorazmiy asos solgan ilm – “algoritm”ni eslashning o‘zi kifoyaligini ta’kidladi. Ushbu ulug‘ zotning beqiyos xizmatlarini insoniyat hamon minnatdorlik bilan eslamoqda. Uning olamshumul kashfiyotlari bugungi axborot texnologiyalarini yaratishda ham asos bo‘lgan.

Kuni kecha olis Ispaniyaning Madrid shahridagi Komplutense universitetida alloma bobomizning haykali o‘rnatalgani ham bu xalqaro e’tirofning yaqqol isbotidir, – dedi Shavkat Mirziyoev. Mashhur ajdodimiz xotirasiga ko‘rsatilgan bunday ulkan

ehtiromni, biz ayni vaqtida xalqimizga, uning qadimiy tarixi va boy madaniyatiga ko'rsatilgan yuksak hurmat ramzi sifatida qabul qilishimiz qayd etildi.

– Ulug‘ allomalarimiz, o‘zlarining olamshumul kashfiyot va ixtiolarini sizning yoshingizda – ayni kuchga to‘lgan navqiron chog‘larida amalga oshirganlar. Siz ham, buyuk ajdodlardan ibrat olib, hayotda mo‘jizalar yaratishga astoydil intilishingiz kerak, – deya ta’kidladi Prezident.

Ta’lim-tarbiya haqida so‘z ketganda, Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”, degan chuqur ma’noli fikri yodimizga tushaveradi. Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtida ham shunchalik, balki undan ham ko‘proq dolzarb ahamiyatga ega.

Ma’lumki, tarbiya o‘z mohiyat-e’tibori bilan milliy, umuminsoniy va gumanistik mazmunga egadir. Har bir jamiyat o‘z oldiga yetuk, har tomonlama kamol topgan, o‘zida butun ijobjiy, oliyjanob fazilatlarni birlashtirgan avlodni tarbiyalashni orzu qiladi. Tarbiyasi og‘ir, ma’naviyati qashshoq yoki ma’naviyatdan mahrum bo‘lgan odamdan biror ezgulik kutish mumkin emas. Chunki u yaxshilik va ezgulik haqida umuman o‘ylamaydi. Atrofga va hatto ota-onasi, qarindosh-urug‘lari taqdiriga ham befarq, loqayd holda yashaydi. Tarbiyali, ma’naviyatli inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, shuningdek, kelgusi hayot va turmushning ravnaqi uchun o‘z hissasini qo‘sishga intiladi. Zotan, bugun xalqimizning “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” buyuk maqsadiga erishuvida ma’naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur.

Mazkur masala o‘ta dolzarb bo‘lganligidan barcha zamonlar donishlari yoshlar tarbiyasi haqida bosh qotirib kelishgan. Masalan, buyuk yunon olimi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, degan so‘zleri bor. Zardushtiylik uch asosiy axloqiy qoidaga tayanadi: “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal”. Shu uchalasiga rioya qilgan odam kamolotga yetgan hisoblangan. Imom Buxoriy bu xususda yanada yorqinroq so‘z aytgan: “Bolaning tabiatni rivojlanishga moyil bo‘ladi, uni qanday g‘oyalalar bilan to‘ldirish ota-onasi va ustozga bog‘liq”.

Forobiyning ta’lim-tarbiya yo‘llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U “Insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l — ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakat, maktab, meros, o‘rganishidir”, deya ta’kidlaydi. Olim, o‘z navbatida, ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy-axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Shuning uchun ushbu g‘oyalardan jamiyatning tarbiyaviy-ta’lim salohiyatini

mustahkamlashda, ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashda foydalansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Navoiy inson qadr-qimmati uning mol-mulki, zeb-ziynati, mansabi yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki uning ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari, undan elga qanchalik naf tegishi bilan belgilanishini ko'p marta takrorlagan. Shoir she'rлaridan birida:

Tut bargichalik qimmat yo'qmi?

Ipak qurtichalik himmating yo'qmi?

— deya insonni o'ylashga, o'ylaganda ham o'z hayotidan kelib chiqib xulosa qilishga chorlaydi. Shu ikki satrda insonning dunyoga kelishidan tortib, bu yorug' olamda yashashning tub mohiyati ochib berilgan.

Demak, anglashiladiki, biz oliygoxlarda uzok yillar ishlab, ilmiy maktablar yaratgan professor-o'qituvchilar nomini ulug'lash, ular yaratgan namunali ilmiy maktablardan o'rnak olish, uzoq-yaqin o'tmishimizda yashab o'tgan ulug' zotlar merosidan, qolaversa, umuminsoniy qadriyatlardan unumli foydalanishimiz kerak bo'ladi. Ana shular asosida yaratilgan yangiliklar farzandlarimiz tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz. Barkamol avlodni tarbiyalash orqali esa oldimizga qo'ygan ulkan maqsadga erishamiz — mamlakatimizda uchinchi Uyg'onish ko'z ochadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. <https://yuz.uz/news/>
2. <https://xs.uz>